

“JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI  
RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYA VA TA’LIMNING AHAMIYATI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”

Xudoynazarova Ozoda Mizrob qizi

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi.

Telefon: +998(93) 506 22 06. [22hamza06@mail.ru](mailto:22hamza06@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002618>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlanirishda huquqiy tarbiya va ta’limning ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur masala yuzasidan ba’zi bir yechimlar berilgan.

*Kalit so‘zlar:* Huquq va burch, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, ta’lim va tarbiya, intizom, huquqiy targ‘ibot, odob-axloq normalari, davlat xizmatchisi, huquqshunoslar, boshqaruv organlari, davlat ramzlari, davlat organlari .

THE IMPORTANCE OF LEGAL EDUCATION AND EDUCATION IN THE  
DEVELOPMENT OF LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE IN SOCIETY:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS

*Abstract.* This article analyzes the importance of legal upbringing and education in the development of legal consciousness and legal culture in society. Also, some solutions to this issue are given.

**Keywords:** Law and duty, legal awareness, legal culture, legal education, education and upbringing, discipline, legal promotion, norms of ethics, civil servant, lawyers, governing bodies, state symbols, state bodies.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ  
ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ:  
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

*Аннотация.* В данной статье анализируется значение правового воспитания и образования в развитии правового сознания и правовой культуры в обществе. Также приведены некоторые решения данного вопроса.

**Ключевые слова:** Закон и долг, правосознание, правовая культура, правовое воспитание, образование и обучение, дисциплина, правовая пропаганда, нормы этикета, государственные службы, юристы, органы управления, государственные символы, государственные органы.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o‘tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo‘lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul“, ”Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak“, deb aytgan fikrlari, mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar muhim ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib kelmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiysi” tasdiqlangan. Unda quyidagi **masalalar ilgari surilgan**:

1) jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli hamda uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini targ‘ib qilish;

2) yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik, odob-axloq tushunchalarini chuqur singdirib borish, asosiy Qomusimizning muhim jihatlarini bolaligidan boshlab o‘rgatish;

3) aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarimizni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil etish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzları bilan faxlanish tuyg‘ulari bilan shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini ko‘chaytirish;

4) ta’lim va tarbiya tizimi, ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq barcha muassasalar o‘z faoliyatlarini sof axloqiy, yuksak ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish va omma ongiga singdirish, eng muhimi fuqarolarning jamiyat hayotining barcha sohalari, xususan, huquqiy masalalar doirasida ham faolligini yana-da oshirish.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat ta’lim muassasalar, balki oiladan boshlanadi. Ijtimoiy fanlar tizimida huquq fani alohida o‘rin tutadi. Huquqiy bilimlar hayotda, har xil aniq vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish, ruxsat etilgan va taqiqlangan narsalar o‘rtasidagi chegarani topa bilish, o‘z huquq va manfaatlarini himoya etishning qonuniy yo‘llari va vositalarini tanlashga o‘rgatadi.

Huquqiy bilimlar siyosiy saviyani kengaytiradi, e’tiqodlar shakllanishiga, hayotdagi huquqiy xodisalarni to‘g‘ri tushunish, huquqiy talablarga ongli ravishda rioya etish, barcha fuqarolarning huquq normalariga amal qilish uchun faol kurashishga yordamlashadi.

Huquqiy tarbiya shakllari quyidagilarcha bo‘lishi mumkin:

- a) huquqiy bilim;
- b) huquqiy tashviqot;
- v) jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlari;
- g) huquqni himoya qiladigan davlat organlarining ishlari bilan tanishish (tergov, sud jarayonlarida qatnashish);
- d) xalq deputatlarini nomzodlikka tavsiya qilish majlislarida, mahalliy hokimiyatlar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyalari ishtirok etish.

Huquqiy tarbiyani jamoa o‘rtasida yoki individual shaklda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni huquqiy bilimga va huquqiy tarbiyaga jalb etishda huquqni himoya qiluvchi davlat organlari xodimlari bilan uchrashuv o‘tkazilishi, savol-javob kechalari tashkil etilishi yoki huquqshunos uyushmalari tuzilishi ijobjiy natija beradi. Individual yakka tarzda huquqiy bilim berishda, huquqiy tarbiyalashda shaxsga maxsus adabiyotlarda tavsiya etilishi, unda qiziqish uyg‘otish, tarbiyalanuvchining ruxiy holatini o‘rganib, u qabul qila oladigan, tushuna biladigan tarzda suhbat olib borish maqsadga muvofiqdir.

Huquqshunoslar huquqiy tarbiya metodlarini odatda ikki turga bo‘ladilar ishontirish va majburlash. Huquqiy tarbiya metodi-bu bir necha muayyan yo‘l va usullar yig‘indisi bo‘lib, ular

asosida kishilar ongiga, dunyoqarashiga ta'sir qilinadi. Buning natijasida tarbiyalanuvchilarda qonunga hurmat hissi uyg'otiladi va qonunning buzilmasligi ta'minlanadi. Eng asosiy metod bu – ishontirish metodi. Ishontirish orqali ijobiy natijaga erishilmasa, majburlash metodi qo'llanadi.

Huquqiy tarbiyada bu ikki metodni birga qo'llash ham mumkin.

Huquqiy tarbiyaning ilmiy prinsiplaridan yana biri o'rganilayotgan qonun yoki qarorning kelib chiqish sabablarini, unga obyektiv zarurat borligini tushuntirib berishdir. Agar tarbiyalanuvchi qonun, qaror va qoidalarning vujudga kelishi, qabul qilinishi umumiy asoslarini tushunib olsa, ayniqsa, hozir o'rganilayotgan huquqiy normaning qabul qilinishi sababini bilsa, uni bajarishga ongli ravishda yondoshadi, o'zida ham huquqiy normaga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Tarbiyaga har tomonlama yondoshish. Tarbiyaga har tomonlama yondoshish deb tarbiya maqsadining shaxs ongida shakllanishiga ko'maklashuvchi omillarni aniqlash, tarbiya shakl va metodlariga ularga tayanish aytildi.

Bu vazifalarning zarar darajada amalga oshirilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. Ikkala tomonning fikr almashishi, huquqiy tushunchalarga oydinlik kiritilishi, yakdillik asosida hayotiy holatining belgilab olinishi tinglovchilar huquqiy ongiga tegishli o'zgarish kiritadi va uni boyitadi. Masalan, tarbiyachi mehnat qonuniga kiritilgan o'zgarishlar bilan tinglovchilarni tanishtirmoqchi. Maqsad ularning ongiga yagona qonun mazmunini aks ettirgan holda mehnat munosabatlarda qonundagi o'zgarishga muvofiq ish ko'ra olishni tarbiyalashdir. Buning uchun tarbiyachi masalaga keng yondoshib, qonun o'zgarishi sabablarini dalillar yordamida ko'rsatishi, yangi qonun mohiyatini isbotlashi, uni ijro etish tartibini o'rgatish, ko'zda tutilgan maqsadni misollar yordamida tushuntirish kerak. Har tamonlama yetuk shaxsni tarbiyalab yetishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Huquqiy tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog huquqiy tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin. Pedagog muayyan masala bo'yicha huquqiy tarbiyaga keng yondashishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, o'quvchida O'zbekiston fuqarolariga sodiqlik burchini tarbiyalashda o'qituvchi-o'quvchi qanday qonunlarni o'rganishi kerakligini tanlab olishi, fuqarolarga taalluqli misollar topishi, fuqarolik burchi buzilganda davlat va jamiyat tomonidan quriladigan choralarни belgilashi, yuridik dalillar to'plashi, so'ngra keng tarbiya mavzularini ishlab chiqishi va shu mavzu bo'yicha ish olib borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, huquqiy ongning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham yuridik omillarning o'zining kifoya emas.

Yuqoridagi tahliliy fikrlarga tayangan holda, ta'lrim muassasalarida amalga oshirilayotgan huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta'lrim muassasalarining mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olgan holda huquqiy ta'lrim samaradorligini oshirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
2. Huquqiy tarbiyani tashkil etish sohasidagi ilg'or tajribalarni barcha talim tizimida ommalashtirish, bu sohada respublika, viloyat, shahar, tuman hamda mintaqalar miqyosida ko'chma seminar va treninglarni o'tkazish;

3. Respublikadagi ilmiy jurnallarda huquqiy tarbiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik yondashuvlar, tavsiyalar, didaktik materiallarni muntazam chop ettirishga erishish;

4. Huquqiy tarbiyani shakllantirishda, uni takomillashtirishda oila, mahalla va ommaviy-axborot vositalari o‘zlarining tarbiyaviy sohasidagi vazifalariga mas’uliyat bilan qarashlari kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, huquq haqidagi ma‘ruzalar, suhbatlar huquqiy targ‘ibotning asosiy shakli bo‘lib kolmoqda. Albatta, bir martalik tadbirlarning epizodliligi, mavzu jihatdan uzilib qolishi o‘zining salbiy jihatlariga ham ega. Uyushgan tarzda, rejali asosda o‘tkaziladigan leksiyalar va suhbatlar turkumlarining tashkil etilishiga o‘tilayotgani beziz emas mavzular turkumlari bir martalik ma‘ruzalardan farqli ravishda voyaga yetmaganlarga muayyan tizimdagи bilimlar majmuyini beradi, huquq me’yorlarini amalda qo‘llanish malakalarini singdiradi, o‘quv rejalari va maktab dasturlari bilan uyg‘un tarzda o‘tkazilishi mumkin. Shu bilan birga ayrim suhbatlar, ma‘ruzalar huquqiy turmush hodisalariga munosabat bildirish, yangi qonunlarni targ‘ib qilish, paydo bo‘ladigan ehtiyojlarni qondirishning eng muhim shakli bo‘lib hisoblanadi.

Sud, prokrutura, adliya organlarining amaliyotchi xodimlari bilan uchrashuvlar g‘oyat muhimdir. Ular har doim o‘smirlarda qiziqish uyg‘otadi, huquqiy masalalar muhokamasiga sabab bo‘ladi. Huquqshunoslar bunday uchrashuvlar oldidan maktablar, hunar-texnika bilim yurtlari, yoshlar jamoalaridagi intizom ahvoli bilan tanishadilar, mavjud kamchiliklar va huquqiy tartibotni buzishlarini tahlil etishadi, huquqbuzarlarga nisbatan qabul qilingan choralar to‘g‘risida axborot berishadi. Bunday uchrashuvlar “davra suhbat” tarzida, erkin suhbatlashish, bahslashish vaziyatida ham o‘tkaziladi. Lekin ular lektorlar va tashkilotchilardan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Maktablar va o‘quv bilim yurtlari uchun tashkil etiladigan tematik kechalar, savollar va javoblar kechalarini ham huquqiy bilimlarni targ‘ib qilishning ta’sirchan shaklidir ularni o‘tkazish uchun madaniyat saroylari, kinoteatrlar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog‘laridan foydalaniladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday kechalar ularni tayyorlashda o‘smirlarning o‘zları ham faol ishtirok etgan joylarda qiziqarli o‘tadi.

## REFERENCES

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.legalcity.uz](http://www.legalcity.uz)
3. [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz).
4. [www.pravacheloveka.uz](http://www.pravacheloveka.uz).